

## XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA KO'RSATUVLARNI HODISA SODIR BO'LGAN JOYDA TEKSHIRISH TERGOV HARAKATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Anvarov Muslimbek Akmal o'g'li.

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi "Tergov faoliyati" mutaxassisligi bo'yicha magistratura tinglovchisi.

E-mail: [muslimbeanvarov@gmail.com](mailto:muslimbeanvarov@gmail.com); Phone: +99899-355-44-01

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11521045>

**Abstract.** Maqolada xorijiy davlatlar tajribasida ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatining o'ziga xos xususiyatlari nazariy va amaliy misollar orqali tahsil qilingan. Tahllillar asosida ushbu jinoyatni yanada takomillashtirish bo'yicha taklif ishlab chiqilgan.

**Tayanch tushunchalar:** O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, jinoyat, jazo, jazoni yengillashtiruvchi holatlar, huquqni muhofaza qilish organlari, tergov faoliyati, xorijiy davlatlar, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish.

## SPECIFIC ASPECTS OF THE INVESTIGATION OF EVIDENCE IN THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES

**Abstract.** In the article, the specific features of the investigative act of checking the broadcasts at the scene of the incident in the experience of foreign countries are analyzed through theoretical and practical examples. Based on the analysis, a proposal for further improvement of this crime was developed.

**Key words:** The Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, crime, punishment, mitigating circumstances, law enforcement agencies, investigative activities, foreign countries, verification of evidence at the scene of the incident.

## ОСОБЕННОСТИ ИССЛЕДОВАНИЯ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В ОПЫТЕ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

**Аннотация.** В статье на теоретических и практических примерах анализируются особенности следственного действия по проверке передач на месте происшествия в опыте зарубежных стран. На основе анализа было разработано предложение по дальнейшему совершенствованию данного преступления.

**Ключевые слова:** Уголовный кодекс Республики Узбекистан, преступление, наказание, смягчающие обстоятельства, правоохранительные органы, следственная деятельность, зарубежные страны, проверка доказательств на месте происшествия.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha, u aybdor hisoblanmasligi belgilangan bo'lib, jinoyat ishini yuritishga mas'ul organlarning mansabdor shaxslari tomonidan jinoyat ishini yuritish davomida shaxsning ayblilik masalasini hal etish uchun tergov harakatlari o'tkazishadi. Dalillarni to'plash va tekshirishga qaratilgan, muhim vazifalarni hal etishga xizmat qiladigan tergov harakatlaridan biri ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishdir.

Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakati jinoyat-protsessual kodeksining 132-134-moddalari bilan tartibga solingan. Ushbu moddalarda ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish uchun asoslar, maqsadi, protsessual tartibi va rasmiylashtirish qoidalari belgilangan bo‘lib, ularning sud-huquq amaliyotida to‘g‘ri qo‘llanilishi shaxs huquqlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ma’lumki, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakati sud-huquq amaliyotida keng qo‘llaniladigan tergov harakatlaridan biri bo‘lib, ushbu tergov harakatini isbotlash jarayonida qo‘llash orqali dalillar to‘plash ancha samarali natija beradi, tergov amaliyotida mazkur tergov harakati qasddan odam o‘ldirish, bosqinchilik, talonchilik, o‘g‘rilik va shu kabi bir qator jinoyatlar bo‘yicha ish yuritish davomida keng qo‘llaniladi.

Shuni ta’kidlash joizki, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakati maqsadiga ko‘ra dalillarni tekshirishga qaratilgan tergov harakati hisoblanadi. Ayrim mualliflar ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish, tergov harakatiga ma’lumotlarni tekshirish maqsadida o‘tkaziladigan tergov harakati sifatida qarashadi. Jumladan, V.V. Bichkov tergov harakatlarini mazmuniga ko‘ra ma’lumotlarni aniqlashga va ma’lumotlarni tekshirishga qaratilgan ikki guruhga ajratib, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakatini faqat ma’lumotlarni tekshirishga qaratilgan harakatlar sifatida baholagan.

D.M. Mirazovning fikricha ”Har qanday tergov harakati umuman protsessual harakatlarni dalillarning majburlov kuchiga tayanmasdan amalga oshirish mumkin emas. Tintuv, olib qo‘yish kabi tergov harakatlarining majburlov xususiyati shundan iboratki, u shaxs yashash joyi va uning daxlsizligini cheklovchi tashkiliy-boshqaruv hamda izlash choralari orqali amalga oshiriladi. Boshqa tergov harakatlarida majburlov kuchi unchalik yaqqol ta’rifga ega bo‘lmasa-da, lekin ularda ham majburlov kuchining belgilari namoyon bo‘ladi”.

Bizning fikrimizcha, tergov harakatlarining ba‘zilari majburlov kuchiga ega. Lekin, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakati majburlov kuchiga ega emas.

Buning boisi shundaki, ushbu tergov harakati shaxsning ixtiyoriy roziligi asosida o‘tkaziladi. Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarning roziligi bo‘lmasa, bu tergov harakati o‘tkazilmaydi.

Xorijiy davlatlar jinoyat protsessual qonunchiligi va bizning jinoyat protsessual qonunchiligidan berilgan ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakatining ishtiroychilari, maqsadi, o‘tkazishning tartibi, o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari, rasmiylashtirish tartibini solishtiradigan bo‘lsak bir qator o‘xhash va farqli jihatlarga guvoh bo‘lamiz.

Ushbu tergov harakatining nomlanishi Rossiya Federatsiyasi, Belorusiya, Turkmaniston, Tojikiston, Qozog‘iston, Moldaviya, Estoniya Respublikalari jinoyat-protsessual kodekslarida turlichadir.

Rossiya Federatsiyasi JPKsining 194-moddasida, shu bilan bir qatorda Ozarbayjon JPKsining 260-moddasida, Belorusiya JPKsining 225-moddasida, Turkmaniston Respublikasi JPKsining 285-moddasida esa bu tergov harakati ”Ko‘rsatuvlarni joyida tekshirish”, Moldaviya Respublikasi JPKsining 114-moddasida ”Jinoyat sodir etilgan joyda ko‘rsatuvlarni tekshirish”, Qozog‘iston Respublikasi JPKsining 238-moddasida ”Ko‘rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish va aniqlashtirish”, Estoniya Respublikasi JPKsining 153<sup>1</sup>-moddasida ”Ko‘rsatuvlarni holat bilan

solishtirish”, Tojikiston JPKsining 183-moddasida ”Tergov eksperimenti va ko‘rsatuvlarni joyida tekshirish”, deb nomlangan.

Ko‘rib turganimizdek, barcha davlatlar ushbu tergov harakatiga turlicha nomlanish bergan.

Shu bilan bir qatorda ba’zi olimlar ham ushbu tergov harakatining nomlanishini turlicha talqin qilganlar. Masalan, G. Okmamatova ”Ko‘rsatmalarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish”, deb emas, balki ”Ko‘rsatmalarni joyida tekshirish”, deb nomlangan. D.M. Mirazov ushbu fikrni tanqid qilib quyidagicha fikrlarni bildirgan: ”G. Okmamatovaning ”Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish” tergov harakatini ”ko‘rsatmani joyida tekshirish”, deb nomlagani jinoyat protsessual qonun talablariga ziddir, chunki O‘zbekiston Respublikasi JPKning 132-moddasida mazkur tergov harakatini ”Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish”, deb qayd etilgan ”Ko‘rsatma” so‘zining imlosiga e’tibor bersak, u tegishli farmoyish, buyruq, tavsiya mazmunida ishlataladi. Shuning uchun G. Okmamatova qonun ijodkori nomlagan atamaga nisbatan o‘z xohishi bilan yondashganligi sababli, qonunchiligidan umuman vujudga kelmagan ”tergov harakati” to‘g‘risida fikr yuritgan”. Biz ham D.M. Mirazovning fikriga qo‘shilamiz, darhaqiqat tergov harakati qonunda qayd etilgan nomlanishi bilan atalishi lozim.

Shuningdek, har bir tergov harakatining nomlanishi uning mazmun-mohiyati, ya’ni o‘tkazish asoslari, ko‘zlangan maqsadi va protsessual tartibidan kelib chiqishi lozim. Amaldagi JPKda ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish ilgari so‘roq qilingan protsess ishtirokchisi bilan o‘tkazilishi, ko‘rsatuvlar hodisa sodir bo‘lgan joyda qayta tiklash yo‘li bilan tekshirilishi kabi qoidalar belgilab qo‘yilganligi bu boradagi xulosamizni yanada oydinlashtiradi.

Tergov harakatlari jinoyat protsessining g‘oyat munozarali, dolzarb masalalaridan biridir.

Muayyan jinoyat ishi yuzasidan protsessual faoliyatning tarkibiy qismi bo‘lgan protsessual harakatlar ichida tergov harakatlari ko‘pchilik qismni tashkil etadi. Qolaversa, jinoyat-protcessual faoliyat subyektlarining asosiy maqsadi jinoyatlarni tez va to‘la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo‘lmasligi hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minalashdan va pirovardida haqiqatni aniqlashdan iborat ekan, har bir holatni tasdiqlovchi ma’lumot va ashyoga tergov harakatlari vositasida dalil maqomi beriladi.

Surishtiruvchi, sud, tergovchi guman qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, guvohlar hamda jabrlanuvchilarining ko‘rsatuvlarini tekshirilayotgan hodisa sodir bo‘lgan joyda holatlarni qayta tiklash yo‘li bilan tekshirib ko‘rishga haqlidir. Ushbu qoida bo‘yicha ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakatini surishtiruvchi, tergovchi va sud o‘tkazishi mumkinligi belgilab o‘tilgan. Lekin Rossiya Federatsiyasi, Moldaviya, Belorusiya, Estonia, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Turkmaniston Respublikalari JPKlarida faqat tergovchilar ushbu tergov harakatini o‘tkazishi belgilab o‘tilgan. Shu bilan birga ushbu davlatlar JPKlarida guman qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh va jabrlanuvchilarining ko‘rsatuvlari tekshirilishi ushbu tergov harakatini o‘tkazish maqsadi bilan birga qayd etilgan. Bizning fikrimizcha, tergov harakatida ishtirok etuvchi ishtirokchilar va tergov harakatini o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad alohida-alohida tartibga solinishi lozim. Chunki, bu ikki tushuncha ikki xil ma’noni anglatadi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 133-moddasida ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tartibi belgilab o‘tilgan bo‘lib, unga asosan, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish surishtiruvchi, tergovchi, xolislari, sud esa taraflar ishtirokida o‘tkazishi

tartibga solingen. Xolislarning ishtirokida xorij davlatlarida ham ushbu tergov harakatini o'tkazishning o'ziga xos tartibi belgilangan, jumladan, Rossiya Federatsiyasi JPKsining 194-moddasida, Qozog'iston Respublikasi JPKsining 238-moddasida, Tojikiston Respublikasi JPKsining 183 -moddasida, Turkmaniston Respublikasining 285-moddasida, Belorusiya Respublikasi JPKsining 225-moddasida qayd etilgan, Ozarbayjon va Moldaviya Respublikalari jinoyat-protsessual qonunchiligidagi esa ko'rsatilmagan.

Shu bilan bir qatorda, ushbu tergov harakatida mutaxassis va ekspertlar ham jalb qilinadi. Turkmaniston, Moldaviya, Belorusiya, Ozarbayjon, Qozog'iston Respublikalari va O'zbekiston Respublikasining JPKlari bo'yicha mutaxassis va ekspertlar ishga jalb qilinishi belgilangan, lekin ushbu qoida Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Estoniya Respublikalari JPKlarida belgilangan.

Ozarbayjon jinoyat protsessual kodeksining 260-moddasida ushbu tergov harakatida tarjimon, mutaxassis, qonuniy vakil, pedagog, shifokor va boshqa ishtirokchilar ham qatnashishi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan. Ushbu ishtirokchilarning ko'rsatuvarlari hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatiga jalb qilinishi mumkinligi, bizning JPKda ham Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, Moldaviya, Belorusiya Respublikalari JPKlarining aynan shu tergov harakati qayd etilgan moddada ko'rsatilmagan. Lekin, bizning JPKmizda, ya'ni 86-moddada tergov harakati o'tkazilishi jarayonida yuqorida qayd etilgan ishtirokchilarning qatnashishi mumkinligi qayd etilganligi sababli ham ushbu shaxslarning ishtirokini aynan moddaning o'zida ko'rsatishga zarurat yo'q.

Ayblanuvchi yoki guman qilinuvchining ko'rsatuvarlari hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishda himoyachi ham ishtirok etishi mumkinligi Ozarbayjon JPKsining 260-moddasida, Moldaviya Respublikasi JPKsining 114-moddasida belgilab o'tilgan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, Moldaviya, Belorusiya, Estoniya JPKlarida ko'rsatuvarlari hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatini o'tkazish tartibi belgilangan normada bunday koida kayd etilmagan. O'zbekiston Respublikasi JPKning 87-moddasida esa, dastlabki tergov va sud harakatlarini yuritishda himoyachi ishtirokiga ruxsat etilgan.

E'tiborli jihat shundaki, O'zbekiston Respublikasi JPKsining 133-moddasida ushbu tergov harakatini o'tkazishda surishtiruvchi, tergovchi yoki sud taraflar va bu tergov harakatining boshqa qatnashchilari ishtirokida tekshiriladigan ko'rsatuvarlari e'lon qilishi, ko'rsatuv bergen shaxslardan ularning to'g'ri yoki noto'g'rilibini, qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishga ehtiyoj bor yoki yo'qligini so'rashi, tekshirishning maqsadi va tartibini tushuntirishi ko'rsatilgan. Bunday Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, Moldaviya, Belorusiya, Estoniya, Qozog'iston, Ozarbayjon JPKlarining ko'rsatuvarlari hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishning tartibiga oid normalarning birortasida qayd etilmagan. Bizning fikrimizcha, ushbu qoidanining JPKda aynan moddaning o'zida tartibga solingenligi shaxs huquq va erkinliklari to'laqonli ravishda ta'minlanganligidan dalolat beradi.

Shu bilan bir qatorda "Ko'rsatuvari tekshirilayotgan guvoh va jabrlanuvchilar, ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv bergenlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirilishi lozim bo'lib, 16 yoshga to'Imagan shaxslar bundan mustasnoligi to'g'risidagi qoida faqatgina Estoniya Respublikasi JPKsining 153<sup>1</sup>-moddasida va O'zbekiston Respublikasi JPKsida ko'rsatilgan. E'tiborli jihat shundaki, yuqorida Estoniya jinoyat protsessual qonunchiligi bo'yicha esa "15 yoshga to'Imagan shaxslar bundan mustasno", deb qayd etilgan.

Ushbu tergov harakatini o'tkazishda bir vaqtning o'zida bir necha shaxsning ko'rsatuvlarini hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishga yo'l qo'yilmasligiga e'tiborni qaratish lozimligi O'zbekiston Respublikasi JPKsida belgilangan. Bu qoida bir qator xorij davlatlari JPKlarida qayd etilishi bilan birga Tojikiston, Moldaviya, Ozarbayjon, Estoniya Respublikalari JPKlarida belgilab o'tilmagan. Zero, bir necha shaxsning ko'rsatuvlari hodisa sodir bo'lgan joyda bir vaqtning o'zida tekshiriladigan bo'lsa, olingan dalillar maqbul deb topilmaydi, hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagagi "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qaroriga zid keladi.

#### **REFERENCES**

1. Sharafutdinov A.O. "Dastlabki tergov faoliyatining strategik yshnalishlari". Huquq-Pravo-Law,2005.
2. Mirazov D.M. "Jinoyat sodir etilgan shaoitni tiklash-jinoyat ishi bo'yicha dalillarning muhim manbai. Toshkent, 1997.
3. Александров С.А. Содержание системы развития уголовно-правовых гарантий.- Горкий,1974.